

Saziq laylak

(Xitoy xalq eztagi)

Musavvir Nelli Mur



Жёлтый аист

(Китайская народная сказка)

Художник Нелли Мур



Bir vaqtlar qadimgi Xitoyda Mi ismli bir kambag'al talaba yashab o'tgan ekan. Uning puli yo'q va hatto bir piyola choyni ham haqini to'lay olmas ekan. Agar bir choyxona sohibi unga boshpana bermaganida, u allaqachon ochlikdan o'lib ketardi.

Tez kunda Mi o'qishini muvaffaqiyatli tugatib, choyxonaning mehribon sohibi oldiga kelib debdi:

Когда-то в древнем Китае жил-был очень бедный студент по имени Ми. У него не было денег, чтобы заплатить даже за чашку чая. Если бы хозяин одной чайной не приютил его, он бы давно умер с голоду.

Вскоре Ми, успешно закончив учёбу, явился к доброму хозяину чайной и сказал:



U cho'ntagidan bir bo'lak sariq bo'mi chiqaribdi va choyxona devoriga sariq laylakni chizibdi.



И он вынул из кармана кусочек жёлтого мела и нарисовал на стене чайной аиста.

– Bu oddiy laylak emas, – debdi Mi, – u sizga men to‘lashim kerak bo‘lganidan ko‘proq pul keltiradi.

Agar choyxonangizga to‘plangan odamlar uch marta qarsak chalishsa, laylak devordan chiqadi va raqsga tushadi. Lekin unutmang: hech qachon uni bir kishi uchun raqsga tushishga majbur qilmang...



Если собравшиеся в вашей чайной люди хлопнут три раза в ладоши, аист сойдёт со стены и будет танцевать. Но помните: никогда не пытайтесь заставить его танцевать только для одного человека...

– Это не простой аист, – сказал Ми, он принесёт вам во много раз больше денег, чем вы на меня потратили.



Mi minnatdorchilik bildirib, choyxona sohibi bilan xayrlashib ketibdi.

Ми с благодарностью попрощался с хозяином чайной и ушёл.

Sohib juda hayratlanibdi va laylakning mo'jizakor fazilatiga ishonmay, uni sinab ko'rmoqchi bo'libdi.

Очень удивился хозяин, не поверил чудесным свойствам аиста, но решил проверить.




Ertasiga choyxonada ko'p odamlar yig'ilganida ulardan uch marta qarsak chalishini iltimos qilibdi. Ular shunday qilgan edilar hamki, shu zahoti laylak devordan chiqib, raqsga tusha boshlabdi.

На другой день, когда в чайной собралось много людей, он попросил их всех трижды хлопнуть в ладоши. И как только они это сделали, тут же со стены сошёл аист и стал танцевать.



U juda chiroyli va latofat bilan raqs tushibdi. Uni ko'rganlar zavqlarini yashirolmay "oh" tortib hayratlanishar edi. Ba'zilar esa ko'zlariga ishonishmadi. Laylak bir necha raqsni ijro etib, joyiga qaytibdi.



Он так красиво и грациозно танцевал, что гости не могли сдержать своего восторга от этого удивительного и волшебного зрелища. Исполнив несколько танцев, аист вернулся на стену.

Sentri laylak haqidagi mish-mishlar
ularda tez tarqalibdi.

Слухи о волшебном аисте разнос-
лись по округе.




Choyxonadan odamlarning keti uzilmay qoldi.
Choyxona sohibi tez kunda boyib ketibdi.
Mining bashorati amalga osha boshlabdi.

G'aroyib laylak haqida boy amal-
dor ham eshitibdi.

Каждый день в чайной было много народу.
Мужьян чайной очень быстро разбогател.
Предсказания Ми сбывались.

Прослышал о чудесном аисте и
богатый чиновник.

Choyxonaga kelib ko'rsa, u yerda faqat dehqonlar
va hunarmandlar o'tirishgan ekan. Bu unga yoqmabdi.
Ertuning g'azablanganini ko'rgan xizmatkorlar shu
kuni tayoqlar bilan dehqon va hunarmandlarga tash-
lab, barchasini quvib yuboribdilar.



Пришёл он в чайную и видит, что там сидят одни крестьяне да ремесленники. Это
ему не понравилось, он рассердился и приказал всех выгнать. Его слуги тотчас наброси-
лись с палками на них и прогнали всех до одного.



Bir o'zi qolgach, amaldor sohibning oldiga bir uyum pulni qo'yibdi va laylakni ko'rsatishni talab qilibdi.

Оставшись один, чиновник выложил перед хозяином кучу денег и потребовал показать аиста.



Ko'p pulni ko'rgan sohib Mining gaplarini unutib, uch marta qarsak chalibdi.

Увидев так много денег, хозяин забыл предостережение Ми и хлопнул три раза в ладоши.



Laylak xohlamay devordan chiqibdi. Uning ko'rinishi juda g'amgin va dardli edi.

Аист нехотя сошёл со стены. Вид у него был очень печальный.

U atigi bir marta raqs ijro etib, yana devordagi suratga aylanibdi. Amaldor qichqiribdi, yerni tepibdi, qarsak chalibdi. Lekin laylak boshqa qimir etmabdi.

Протанцевал он всего один танец и вернулся на стену. Чиновник кричал, топал ногами, хлопал в ладоши, но аист даже не пошевелился.



Kechasi choyxona eshigini kimdir qattiq taqillatibdi. Xavotirlangan sohib eshikni ochib, qarshisida Mini ko'ribdi.

А ночью в двери чайной кто-то громко постучал. Встревоженный хозяин, открыв дверь, увидел перед собой Ми.



U bir so'z ham demay surnaychasini olib, uni chalibdi va orqasiga qaramay yurib ketibdi. Surnaychanning birinchi ovozidanoq laylak seskanib ketibdi, devordan tez sakrab tushib, Mi-ning ortidan ketibdi. O'shandan buyon Mi va uning sehrlay lagini hech kim ko'rmabdi. Keksa kishilar behuda aytmaydilarki, basharti qayerdadir mo'jizali g'aroyibot paydo bo'lsa, bu hamma uchundir. Agar kimda-kim uni o'ziniki qilib olmoqchi bo'lsa, u g'oyib bo'lar ekan.

Не промолвив ни слова, он достал дудочку, заиграл и пошёл не оборачиваясь. С первыми же звуками дудочки аист встрепенулся, быстро соскочил со стены и пошёл за Ми. С тех пор Ми и его волшебного аиста никто не видел.

Недаром старые люди говорят, что если где-либо произойдет чудо, то это для всех. А если кто-либо захочет завладеть им для себя, то оно всё равно исчезнет.



Sehrli obkash

(Xitoy xalq eztagi)

Musavvir Nelli Mur



Волшебное коромысло

(Китайская народная сказка)

Художник Нелли Мур

Qadimiy Yunnan viloyatining Guaninshan tog'i etagidagi soy yaqinida cho'ponlar sigirlarini boqishardi.

Bir kuni cho'ponlar har kuni peshin paytida allaqanday go'zal bir qiz paydo bo'lishini sezib qoldilar. Sigirlar to'qson to'qqizta o'rniga yuzta bo'lib qolardi.



В древней провинции Юньнань, у ручья под горой Гуаньиньшань, пастухи издавна пасли коров.

Однажды они заметили, что каждый день в полдень стала появляться прекрасная девушка. И коров становилось сто вместо девяносто девяти.

Sigirlarni orqaga haydab ketishda ular yana to'qson to'qqizta chiqar, qiz esa g'oyib bo'lar edi.



Когда же нужно было гнать коров обратно, их оказывалось опять девяносто девять, а девушка куда-то исчезала.

Tez kunda cho'ponlar go'zal qiz bilan do'stlashib olilshibdi. Qiz ularga juda qiziq voqealarni so'zlab bergani uchun ular qizni yoqtirib qolishibdi.



Вскоре пастухам удалось подружиться с прекрасной девушкой. Она рассказывала им много интересных историй, и они очень полюбили её за это.

Qiz yuzinchi sigir haqida ham gapirib berdi:
– Bu shunchaki oddiy sigir emas, sehlidir, – derdi u.

– U suv ustida ham
xuddi yerdagidek yuradi.



Поведала девушка и про загадочную корову:
– Это не простая корова, – сказала она, – а волшебная. Она ходит по воде так же, как и по земле.

Uning har bir tuki eng og‘ir yukni ham ko‘tara oladi. Shunday tuk bilan inson har qanday og‘irlikdagi yukni ko‘tarib, charchamaydi.



Каждый волосок её может выдержать самый тяжёлый груз. На таком волоске человеку легко нести любую тяжесть, он не устанет.

Buni eshitib, cho‘ponlar qizdan sehrli sigirni ko‘rsatishimi iltimos qilishibdi. Go‘zal qiz jilmayib, shunday debdi:



– Kimki
faqat halol mehnati
bilan yashasagina
u sigirni ko‘rishi
mumkin.

Услыхав это, пастухи стали просить девушку показать им волшебную корову. Улыбнулась прекрасная девушка и сказала:

– Только тот может увидеть её, кто живёт честным трудом.

Bu gapdan keyin qiz ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shu zahotiyuq quyosh tog' ortiga bota boshladi.

Cho'ponlar hayratining adog'i yo'q edi. Aftidan, bu qiz samoviy farishta bo'lsa kerak, degan fikrga borishibdi. Cho'ponlar sigirlarni sanadilar: to'qson to'qqizta ekan.

«Demak, sehrli sigirni ham farishta o'zi bilan olib ketgan», – deb o'ylashibdi ular.



После этих слов девушка исчезла. И тут же солнце начало садиться за гору.



Удивлению пастухов не было конца. Видно, эта прекрасная девушка – небесная фея, решили они. Сосчитали пастухи коров: девяносто девять! «Значит, волшебную корову фея забрала с собой», – подумали они.



Ertasi kuni cho'ponlar sigirlarni haydab kelib, yetilgan yovvoyi olmalardan yemoqchi bo'ldilar. Ular daraxtga chiqib olib, sigirlarning makkajo'xori dalasiga yoyilib ketganini sezmay qolishdi.

На следующий день пастухи, пригнав коров, решили полакомиться созревшими дикими яблоками. Все полезли на дерево и не заметили, как коровы забрались на кукурузное поле.

Qorovul chol ularni ko'rib qolib, dalaga chopib keldi va sigirlarni hayday boshladi.



Старик-сторож, увидев их, прибежал на поле и начал разгонять.

U qo'llarini silkitgan holda qichqirar, lekin bir to'da podani bir o'ziga uddalash qiyin edi.



Кричал, размахивал руками, да только трудно ему было справиться с целым стадом коров.

Shunda u o'zi o'tin tashiydigan eski obkashni qo'liga olib, podani hayday boshladi. Bu obkash esa juda eski, yorilib ketgan, g'adirbudur edi.

Chol sigirlarni zo'rg'a haydab, biroz dam olgani o'tirdi.



Тогда схватил он старое коромысло, на котором носил хворост, и стал разгонять стадо. А коромысло то было старое-престарое, растрескавшееся, щербатое. Еле разогнал старик коров, утомился, присел отдохнуть.


O'ziga kelgach, o'tin yig'ishni boshladi. U o'tinni bozorda pullab tirikchilik qilardi.



Chol sigirlarni haydayotib, bu eski obkashning yoriqlariga sigirning jun tutamlari kirib qolganini sezmad.

Придя в себя, он начал собирать хворост. Хворост он продавал на базаре, тем и жил.

Разгоняя коров, старик не заметил, что в трещинах его старого коромысла застряли клочки коровьей шерсти.




Kech kiringach o'tinlarini ikki quchoq qilib bog'ladi. Uni obkashga osib, ko'targan ham edi, ularning pardek yengilligini ko'rib hayratga tushdi. Chol yana bir bog'lam terib, oldingi ikkitasiga qo'shdi:

«Bu qanday mo'jiza! Umuman og'irlikni sezmayapman! Uni ko'tarib borish ham negadir juda yengil», — o'yladi u.



К концу дня связал он две вязанки хвороста, повесил их на коромысло, поднял и удивился. Они были лёгкими, как пушинки. Старик собрал ещё вязанку, прибавил её к двум другим: «Что за чудеса! Я совсем не ощущаю веса! И нести их так легко почему-то», — подумал он.



U quvonganidan bir aravaga yetarli o'tin terdi. Bog'lamlarning orasiga suqilib obkashni yelkasi gilib, ko'tarib ketdi. U tez va yengil yurib borar, og'irlikni esa umuman his qilmasdi.

На радостях он набрал столько хвороста, что хватило бы на целую повозку, протиснулся между вязанками, подцепил плечом коромысло и понёс. Идёт быстро и легко, а тяжести совсем не чувствует и усталости не ведает.

Chol endi har kuni bozorga o'tinni katta bog'lamda olib kelardi. Sotishdan tushgan pul uning yeyishiga ham, kiyimiga ham yetar, hatto ortib qolardi. Oldingidan ko'ra u ancha yaxshi yashay boshladi.



Теперь старик каждый день приносил на базар огромные вязанки хвороста. Денег, вырученных от продажи, хватало ему и на еду, и на питьё, и на одежду, и даже оставалось про запас. Зажил он намного лучше, чем прежде.

Kunlarning birida chol katta bog‘lamdagi o‘tin bilan borarkan, uning ro‘parasidan otliq boy chiqdi. Ulkan bog‘lamni cholning qiynalmasdan ko‘tarib ketayotganini ko‘rib shunday hayratlandiki, ko‘zlarini ishqalab:

«Bu mening ko‘zimga ko‘rinmayaptimikan», – deb o‘yladi u.



Идёт как-то раз старик с большой вязанкой хвороста, а навстречу ему богач на коне. Увидев, какую громадную вязанку легко несёт старичок, богач так удивился, что протёр глаза и подумал: «Уж не мерещится ли мне?»

U cholni to‘xtatib so‘radi:

– Menga qara, bunday og‘irlikni qanday ko‘tarding?

– Bu g‘aroyib obkash menga yordam beryapti, – javob berdi u. – Unga qancha narsa yuklamagin, og‘irlikni his qilmaysan!

Boy ishonmasdan o‘zi sinab ko‘rdi. Obkashdagi o‘tinni ko‘tardi va haqiqatdan ham hech qanday og‘irlikni his qilmadi.



Остановил он старика и спрашивает:

– Слушай, как тебе удалось поднять такую тяжесть?

– Это необычное коромысло помогает мне, – отвечает тот. – Сколько ни грузи на него, тяжести не чувствуешь!

Не поверил богач, сам попробовал. Поднял он коромысло с хворостом, и вправду никакой тяжести не почувствовал.



Boy cholning obkashidan ko‘zini uzolmay qoldi.

– Eshit, chol! Uni menga sot. Men senga besh yuz lan kumush beraman, – dedi u.

Chol uni sotishga uzoq vaqt rozi bo‘lmadi. Biroq boy obkashga yopishib, qaysarlik bilan sotasan, deb turib oldi.

«Agar, unga sotsam, – o‘ylandi chol. – Unda shu besh yuz lan kumush bilan umrimning oxirigacha muhtojlik ko‘rmay yashayman».



Chol ko‘nib besh yuz lan kumushni oldi-da, o‘z yo‘lida davom etdi.



Загорелся богач, глаз оторвать не может от чудокоромысла.

– Слушай, старик! Продай мне его! Я дам тебе за него пятьсот лан серебра.

Долго не соглашался старик, но богач упорно и настойчиво уговаривал его: продай да продай!

«Ну, если я продам ему, – подумал старик, – то на эти пятьсот лан серебра я проживу безбедно до конца жизни».

Согласился старик, продал коромысло и пошёл своей дорогой.

Boyning quvonchi ichiga sig'masdi.
Obkashni siypalar va o'ylardi:

«Hamma qullarimni quvib yuboraman, ham-
ma ishni o'zim qilaman. Yanada boyib ketaman.
Oh, mening mo'jizakor obkashim!»



Shunda u obkashdagi yoriqlarni va g'adir-budurlarini ko'rib qoldi.

А богач наравдаться не может. Поглаживает он коромысло и думает: «Всех батраков выгоню, сам всю работу буду делать. Еще богаче стану. Ай, да коромысло ты моё чудесное!» Тут он заметил на коромысле трещинки и щербинки.

Boy duradgorga borib, uni
randalab sayqallashni buyurdi.



Пошёл богач к плотнику и велел обстругать и отполировать коромысло.

Duradgor uni randa bilan shunday silliqladiki, pay-
raxa bilan sehrli sigirning hamma junlari ham qirib tash-
landi. Obkash silliq va yaltiroq bo'lib qoldi, lekin endi
uning sehrli kuchi
yo'qolgan edi.



Плотник так выстрогал коромысло, что со стружками снялись и все шерстинки волшебной коровы. Стало коромысло гладким и блестящим, но уже без волшебной силы.

Boy obkashni xotiniga ko'rsatib, maqtanardi.
Xotini hayratlanar va o'ylar edi:

«Erim hech qachon bunday
quvonmagan edi. Aftidan u
chindan ham qimmatli buyum
sotib olgan ko'rinadi».



Показывает богач коромысло жене, хвастается. Удивляется жена и думает:

«Никогда муж так сильно
не радовался! Видно, и вправду
он ценную вещь купил».

Boy o'zi xarid qilgan narsaning sirini unga aytgan edi, u obkashning kuchini sinab ko'rishga qaror qildi. Unga ikkita kichik tarvuzni osgan edi, eri kuldi va qichqirdi:

– Ey xotin, sen qo'rqmagin-da! Bu axir sehrli obkash.

Boy eng katta tarvuzlarni va o'tin bog'lamlarini olib kelib, ularni obkashga mahkamladi va xotiniga dedi:



А когда богач рассказал ей секрет своей покупки, решила она проверить силу коромысла. Повесила на него два маленьких арбуза, а муж смеётся да приговаривает:

– Эй, жена, больше грузи, не бойся! Это же волшебное коромысло.

Принёс он самые большие арбузы и вязанки хвороста, прикрепил их к коромыслу и говорит жене:

– Mana endi ko‘tarishning mumkin!

Obkashni ko‘taraman deb xotin gumbirlab yerga ag‘darildi, sal bo‘lmasa belini sindirayozdi.

– Bunda hech qanaqangi sehrlı kuch yo‘q-ku, senga shunday ko‘rinayotgandir balki, erjon?



– Вот теперь можешь поднимать!

Попыталась жена поднять коромысло и тут же грохнулась наземь, чуть спину не сломала.

– Какая же тут волшебная сила?! Может, показалось тебе, муженёк?

– Eh, xotin! – dedi u. – Sehrlı kuch deganda sen nimani ham tushunar eding!

Boy yana yuk qo‘shdi, ko‘tarmoqchi bo‘lgandi, shu payt obkash og‘irlikni ko‘tarolmay sinib ketdi.



– Эх, жена! – сказал он. – Что ты понимаешь в волшебной силе!

Добавил богач ещё две вязанки хвороста, рванул коромысло со всей силой... Оно и переломилось.

Go‘zal samoviy farishta qiz asl haq gapni aytgan edi: «Sehrlı buyumlarni faqat halol mehnat bilan qo‘lga kiritish mumkin».

Правду говорила небесная фея: «Волшебные вещи достаются только честным людям».



Tulki, bo'ri va ayiq

(Rus xalq eʼtagi)

Musavvir Tatyana Pavlenko



Лиса, волк и медведь

(Русская народная сказка)

Художник Татьяна Павленко



Bir kuni tulki qishloqdagi tovuqlarni ovlash payiga tushib qolibdi. O'rmon bo'ylab borarkan, yordamchilikka kimni olishni o'ylabdi.

Shu payt qarshisidan bo'ri chopib kelayotganini ko'rib qolibdi.

Надумала как-то лиса на курочек в деревне поохотиться. Идёт по лесу и думает, кого бы ей в помощники взять. А тут ей навстречу волк бежит.

– Salom tulki, qayoqqa yo'l olding?

– Qishloqqa, tovuqlarni ovlagani.

– Men ham sen bilan boray?

Tulkiga xuddi shu kerak edi.

– Здравствуй, сестрица. Куда путь держишь?

– Иду, братец, в деревню на курочек охотиться, – отвечает лиса.

– Возьми и меня с собой, кума! – просит волк.

А лисе того и надо.

– Ой, куманёк, я и сама хотела позвать тебя на помощь, – обрадовалась лиса.



Yo'lda ular ayiqni uchra-
tishibdi.

– Qayerga ketayapsizlar,
tulkijon singiljon?

– Tovuqlarni ovlagani qish-
loqqa. Bo'ri esa menga yor-
damlashadi.

– Meni ham o'zingiz bilan
birga olib ketinglar?



Идут они по лесу, а на-
встречу им медведь.

– Далеко ли идёте, лисич-
ка-сестричка?

– Иду я, братец-медведь,
в деревню на курочек охо-
титься, – отвечает лиса, – а
братец-волк будет мне по-
могать.

...

– Ketskik, ayiq og'a,
ketskik! Yordam berasan!

Ular qishloqqa keli-
shibdi.

– Xo'sh, maymoq
og'a, qishloqqa kirgin-
da, kuching boricha
bo'kir, – debdi tulki. –
Erkaklar va ayollar uy-
laridan chopib chiq-
ishlari bilan o'rmonga
qoch. Men senga ham
tovuqlar olib kelaman.



– Возьмите и меня!

– Пойдём, братец-медведь, пой-
дём! Помогать будешь!

Пришли они к деревне.

– Ну, косопалый братец, ступай
в деревню и рычи, что есть мочи, –
говорит лиса. – А как выскочат из
хат мужики да бабы, убегай в лес.
Я для тебя кур наберу.

Ayiq qishloqqa borib bo'kirardi. Kulbalaridan erkak-u ayollar chopib chiqishib, kim panshaxa, kim tayoq va obkashlarni tutganicha ayiqni kaltaklay boshlashibdi. Ayiq ulardan arang qutulib o'rmonga qarab qochibdi. Odamlar esa ayiqning orqasidan quvishibdi.

Идёт медведь по деревне, рычит. Выскочили из хат мужики да бабы, похватали вилы, колья и коромысла и стали бить его. Еле вырвался медведь и стал убегать к лесу, а они в погоню за ним.



Shunda tulki bo'riga qarab debdi:

– Sen, og'aynijon, qishloqqa kirib uvullab, hovlilardagi hamma itlarning diqqatini tort, keyin o'rmonga qarab qochgin. Men esa sening ulushing bo'lgan tovuqlarni ham ko'tarib boraman.

Тут лиса говорит волку:

– Ты, куманёк, скорей спеши в деревню. Пока мужики и бабы гонят медведя, ты своим воем вымани всех собак из дворов и беги к лесу. А я и на твою долю кур натаскаю.

Bo'ri qishloqning o'rtasiga borib, bor ovozi bilan uvillabdi. Itlar chopib kelib, uni tishlay boshlashladi. Bo'ri esa arang o'rmon tomon qochib qolibdi.



Добежал волк до середины деревни, да как завоет. Прибежали собаки и набросились на него. Волк еле-еле ноги в лес унёс.

Erkaklar-u ayollar va itlar hali ham ayiq va bo'ri bilan band ekanlar. Tulki avval bir, keyin ikkinchi tovuqxonaga kirib, tovuqlarni bir qopga joylabdi.

Пока мужики, бабы да собаки были заняты медведем и волком, зашла лиса в один, потом в другой курятник, нахватала курочек целый мешок и была такова.



Tulki qisqa yo‘l bilan o‘rmonga boribdi. Tovuqlar solingan qopni yerga qo‘yibdi. O‘zi esa boshqa kattaroq qopni olib, uni tosh, qarag‘ay yong‘og‘i va to‘ng‘izyong‘oq bilan to‘ldiribdi.

Uni tovuqlar solingan qopning yoniga qo‘yib, dam olgani yoniga o‘tiribdi.

Прибежала лиса в лес короткой дорожкой, положила на землю мешок с курами. А сама взяла другой мешок, что побольше, и положила туда камней, шишек и желудей. Пристроила его к мешку с курами, да чтоб виднее был, а сама села рядом отдохнуть.



Kaltaklangan ayiq va talangan bo‘ri qichqirishibdi:

– Xo‘sh, tulki, o‘ljani olib keldingmi?! Bizning ulushimiz qani?!

– Mana, tovuqlarga to‘la qoplar yotibdi, – debdi tulki. – Xohlaganingizni olib keting.

Прибежали избитый медведь и искусанный волк и кричат:

– Ну, лиса, принесла добычу?! Где наша доля?!

– Вот лежат полные мешки кур, – говорит лиса, – берите любой.





Bo'ri bilan ayiq qoplarga tashlanishibdi. Toshlar, qarag'ay yong'og'i va to'ng'izyong'oq bilan to'ldirilgan eng katta va og'ir qopni ko'tarib o'rmonga olib ketishibdi.

Кинулись волк и медведь к мешкам. Взяли самый большой и тяжёлый мешок, который лиса камнями, шишками и желудями набила, и поволокли его в лес.

Tulki bo'ri bilan ayiqning nodonligi ustidan kulib o'zining ayyorligidan mamnun bo'lib, tovuqlar solingan qopni ko'targanacha o'zining iniga yo'l olibdi.



Посмеялась лиса над глупыми волком и медведем и довольная собой, понесла мешок с курами себе в нору.